



HUDUDLARDA INNOVATSIYA JARAYONLARI TARAQQIYOTINING HOZIRGI DAVRGA XOS TENDENSIYALARI VA BELGILARI

PhD Bekmurodova Saodat

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0001-8388-4854

saodatikromovna12@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion tizimning asosiy xususiyatlari va uning infratuzilmaviy tarkibi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion tizim infratuzilmasining mintaqalar barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, hududlar barqarorligining muhim elementlari hamda innovatsion infratuzilmaning shakllanish jarayonlari keng yoritilgan. Shuningdek, innovatsion infratuzilma shakllanishi va mintaqalar barqarorligining o'zaro muvofiqligi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: hududlar barqarorligi, mintaqaviy rivojlanish, innovatsion klasterlar, raqamli infratuzilma, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, mintaqaning innovatsion salohiyati, kapital qo'yilmalar, soha va tarmoqlar infratuzilmasi, innovatsion faoliyat, barqaror hududiy rivojlanish.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В РЕГИОНАХ

PhD Бекмуродова Саодат

Университет экономики и педагогики

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализированы основные характеристики инновационной системы и ее инфраструктурная структура. В исследовании раскрыта роль инфраструктуры инновационной системы в обеспечении устойчивости регионов, определены ключевые элементы региональной устойчивости, а также всесторонне освещены процессы формирования инновационной инфраструктуры. Кроме того, теоретически и практически обоснована взаимосогласованность процессов формирования инновационной инфраструктуры и обеспечения региональной устойчивости.

Ключевые слова: устойчивость регионов, региональное развитие, инновационные кластеры, цифровая инфраструктура, социально-экономическая эффективность, инновационный потенциал региона, капитальные вложения, инфраструктура отраслей и секторов экономики, инновационная деятельность, устойчивое территориальное развитие.

CURRENT TRENDS AND FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATION PROCESSES IN REGIONS

PhD **Bekmurodova Saodat**

University of Economics and Pedagogy

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the main characteristics of the innovation system and its infrastructural structure. The study examines the role of innovation system infrastructure in ensuring regional sustainability, identifies the key elements of regional stability, and comprehensively highlights the processes of innovation infrastructure formation. In addition, the interrelation between the formation of innovation infrastructure and regional sustainability is theoretically and practically substantiated.*

Keywords: *regional sustainability, regional development, innovative clusters, digital infrastructure, socio-economic efficiency, regional innovative potential, capital investment, infrastructure of sectors and industries, innovation activity, sustainable territorial development.*

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi innovatsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholi farovonligini yuksaltirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, hududlarda innovatsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari, ularning hozirgi davrga xos tendensiyalarini aniqlash va tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda hududiy innovatsion tizimlarni shakllantirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda innovatsion klasterlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash mintaqaviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga aylanmoqda. Bunda hududlarning innovatsion salohiyati, kapital qo'yilmalar hajmi, soha va tarmoqlar infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi innovatsion faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda uzoq va qisqa muddatlarda evolyusion va revolyusion yaratilgan tovarlarning marjinal va umumiy iqtisodiy samaradorligini aniqlash innovatsiyalarning natijadorligini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun innovatsiyalarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'sirini baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

Qashqadaryo viloyatida bugungi kunda innovatsiyalarni joriy qilish jarayoni klasterlar faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Mavjud innovatsion loyihalarni joriy qilish hududga taalluqli resurslardan foydalangan holda ma'lum bir davrni o'z ichiga olishi lozim. Ushbu davrdagi samaradorlikni hisoblash klasterlar uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodchi olimlar tomonidan klasterlarda innovatsiyalarga sarflangan mablag'larni oshirish, shuningdek, innovatsiya samaradorligi bo'yicha mezonlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Rus olimlari Kuzik, Yakovev (2010) innovatsion samaradorlikni bir ko'rsatkichda emas, umumiy ko'rsatkichlarda ifodalash kerakligini ta'kidlaydi.

Yaratilgan innovatsion mahsulotlarning iqtisodiy samaradorligi innovatsiyaga sarflangan mablag'lar natijasida erishgan qushimcha mahsulotni jami xarajatlarga hamda aynan innovatsiya uchun sarflangan xarajatlarga nisbati orqali ifodalanadi. Innovatsiyalarning natijadorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bir tomondan ishlab chiqarish xajmining o'sishi va innovatsion mahsulotlarining jami mahsulotdagi ulushi orqali ifodalanadi. Shuningdek, ular aniq bir trayektoriya va vaqtga bog'liq ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Bu borada rus olimlari Kuzik, Yakovevlar (2010) yangi turdagi va takomillashtirilgan inovatsion

mahsulotlar asosida samaradorlik ko'rsatkichlari masshtabini oshirish mumkin deb, hisoblaydilar. Ular mehnat sarfining kamayishi hisobiga bo'ladigan ishsizlikni yangi kasblar paydo bo'lishi bilan balanslashadi, deb izohlaydilar.

Innovatsiyalar samaradorligini oshirish hisobiga butun jahon aholisining, mamlakatlarning turmush sifati va sivilizatsiyasini o'sishini yoqlaydi. Shuningdek, Limler, Jonson (2007) fikricha, innovatsiya mahsulotlarning yangi turini kashf qilish natijasida bozordagi ulushini oshirib borish bo'yicha qilinadigan ishlarning bosqichma bosqich amalga oshirilish jarayonidir. Santoning (1999) ilmiy asarlarida korxona faoliyatidagi innovatsiyalarni joriy qilishning chiziqli ketma-ket bosqichini ishlab chiqilgan.

Innovatsion ishlanmalarni amalga oshiruvchi samaradorlikning umumiy funksiyasi ikkita erkin o'zgaruvchiga: birinchidan, innovatsion ishlanmalarni sotish, ikkinchidan, xarajatlarni kamaytirish koefficientiga bog'liqligini ta'kidlanadi. Rus olimlari Popov, Bovin, Cherednikova (2009)lar tomonidan innovatsiyalarni baholash me'yorlarini va ularni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini ijtimoiy va hajmiga nisbatan o'rganishni taklif etadi.

Innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish natijasida hajmni aniqlash kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan natija va ishlab chiqarish tizimi xususiyatlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda innovatsion taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlash va ularni boshqarishda tizimli yondashuvning o'rni va ahamiyati baholanib, buning uchun turli ilmiy usullar to'plami qo'llanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonlari, subyekti sifatida esa hududiy innovatsion tizim, davlat boshqaruvi organlari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari tanlandi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilinib, innovatsion taraqqiyot hududiy iqtisodiyotning bir-biri bilan bog'langan tarkibiy elementlari — ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish, infratuzilma va boshqaruv tizimlari integratsiyalangan holda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv Qashqadaryo viloyatida innovatsion rivojlanishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini ochib berishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2019–2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha umumiy tendensiya ijobiy: ishlab chiqarish hajmi va ulushi oshgan, texnologik yangilanishlar va infratuzilma islohotlari bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Sanoat tarmog'ida innovatsion mahsulotlarning ulushi barqaror ravishda saqlanib qolgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi jihatidan innovatsiyalar qishloq ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini ham yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Hududda ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlar tarkibida yangi mahsulot turlari soni ham ortib bormoqda, bu esa mamlakat ichidagi ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Sanoat tarmog'ida innovatsion mahsulotlar hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki:

2019–2024 yillar oralig'ida Qashqadaryo viloyatida sanoat sohasida ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi muaffaqiyatli o'sdi.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmida innovatsiyalarning ulushi 18.6 foizni tashkil qilib, 2024 yilda 5416,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 42,9 foizga oshgan. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida innovatsion mahsulotlar hajmi 2024 yilda 24953,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 3,2 barobarga oshgan. Xizmatlarda innovatsion mahsulotlar hajmi 2024 yilda 9560,3 mlrd. so'mni

tashkil qilib, keyingi besh yil ichida 185,9 foizga oshgan. Qurilish pudrat sohasida esa 2,6 martaga oshgan, innovatsion mahsulotlar sanoat va agrar sektorga to'g'ri keladi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2019-2024 yilda tarmoqlar bo'yicha innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2019-yil.	2020-yil.	2021-yil.	2022-yil.	2023-yil.	2024-yil.	2019-2024-yillardagi o'zgarish, %
Sanoat ishlab chiqarish hajmi	mlrd. so'm	20360,1	14612,3	18771,9	22814,7	28259,6	29097,4	142,9
Sanoat ishlab chiqarishda innovatsion mahsulotlar hajmi	mlrd. so'm	3257,6	2630,2	3566,7	4106,6	4804,1	5416,8	166,3
Sanoat ishlab chiqarish hajmida innovatsiyalarning ulushi	%	16,0	18,0	19,0	18,0	17,0	18,6	116,4
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jalik mahsulotlari hajmi	mlrd. so'm	20415,1	24348,8	28275,6	32227,2	40167,9	57230,2	280,3
Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda innovatsion mahsulotlar hajmi	mlrd. so'm	7757,7	9739,5	11593,0	13213,2	16468,8	24953,4	321,7
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jalik mahsulotlari hajmida innovatsiyalarning ulushi, %	%	38,0	40,0	41,0	41,0	41,0	43,6	114,7
Xizmatlar hajmi	mlrd. so'm	8800,9	10349,5	12907,4	15945,8	19518,4	29949,7	340,3
Xizmatlarda innovatsion mahsulotlar hajmi	mlrd. so'm	3344,3	3415,3	4388,5	5421,6	6831,4	9560,3	285,9
Xizmatlar hajmida innovatsiyalarning ulushi, %	%	38,0	33,0	34,0	34,0	35,0	32,1	84,3
Qurilish pudrat ishlari xajmi	mlrd. so'm	4365,3	4832,6	6336,6	7831,1	9246,2	13815,1	316,5
Qurilish pudrat ishlari innovatsion mahsulotlar xajmi	mlrd. so'm	349,2	434,9	380,2	548,2	647,2	874,7	250,5
Qurilish pudrat ishlari innovatsion mahsulotlar xajmi	%	8,0	9,0	6,0	7,0	7	6,3	X

Manba: Qashqadaryo viloyat oliy talim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqotda analitik va statistik tahlil metodlari orqali Qashqadaryo viloyatining so'nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, innovatsion faoliyat bilan bog'liq rasmiy statistik ma'lumotlar o'rganildi. Qashqadaryo viloyatida 2019-2024 yilda tarmoqlar bo'yicha innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish qo'yilmalar va infratuzilma, soha va tarmoqlar tahlil qilindi.

Innovatsiyalarning yo'nalishlardagi o'zgarishlar YaHMning o'sishiga olib kelib, umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va barqarorligiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Qashqadaryo viloyatida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati ko'paymoqda. So'nggi yillarda innovatsion mahsulotlar turlari va loyihalarining soni ortib bormoqda hamda texnologik yangiliklar asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar soni kengaymoqda. Masalan, viloyatda 2024-yilda 20 turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan hamda keyingi yilda yana 66 yangi mahsulot turini ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda. Bu esa hududda innovatsion ishlab chiqarishning barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi.

Qashqadaryo statistik ma'lumotlariga ko'ra, hududda innovatsion faoliyatni amalga oshirgan korxonalar asosan sanoat, axborot-alloqa, qishloq xo'jaligi, qurilish va savdo sohalarida faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat sektoridagi innovatsion mahsulotlar hajmi sezilarli darajada katta bo'lib, qishloq xo'jaligi va alloqa tarmoqlarida ham innovatsiyalar o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda.

Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishi viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga musbat ta'sir ko'rsatmoqda. Bu nafaqat yuqori iqtisodiy o'sish, balki yangi ish o'rinlari yaratilishiga, importni qisqartirishga va eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida innovatsion agrotexnologiyalar joriy etilishi ham fermerlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

1. Hududda texnoparklar, inkubatorlar va laboratoriyalar tarmog'ini kengaytirish orqali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va ilmiy-texnik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarur.

2. Raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot tizimlarini modernizatsiya qilish va korxonalar samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

3. Hududiy innovatsion klasterlar yaratish orqali ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish hamda tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish kerak.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Санто Б. (1999) *Философия предпринимательства: Проблемы теории, практики управления*. – М.: - 101 с.

Bekmurodova S.I. (2024) "A strategic approach to state financial support of the regional economy". *international bulletin of engineering and technology* (13-21p) (issn: 2770-9124)13.

Bekmurodova S.I. (2024) "Mintaqalarda innovatsiya jarayonlarini rivojlantirish xususiyatlari" *aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali* 4(10), (61-67b) (issn: 2181-1865)

Johnson, R.A. and Wichern, D.W. (2007) *Applied Multivariate Statistical Analysis*. 6th edn. Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall.

Бовин А.А., Чередникова Л.Е., Якимович В.А. (2009) *Управление инновациями в организациях*. – М.: ИНФРА-М, - 320 с.

Кузык Б.Н., Яковец Ю. В. (2010) *Цивилизации: теория, история, диалог, будущее* — М.: Институт экономических стратегий. Т. VI: Перспективы становления интегральной цивилизации; авт. предисл. А. Д. Некипелов. – М.: Институт экономических стратегий, - 576 с.